

Ulug' shoir haykali poyida

El-yurtini sevgan, uning taraqqiyoti va farovonligi uchun sidqidildan xizmat qilgan farzandlarni tarix ham siylaydi. Xalqimizning tinch, to'kin va barqaror hayoti, yorug' kelajagi yo'lida kurashgan insonlar nomi haqli ravishda abadiyatga daxldordir. Bugun belgilangan reja-jadval asosida "Gidromelirativ ishlarni mexanizatsiyalash" fakulteti professor-o'qituvchilar va talabalar jamoasi Adiblar xiyobonida o'zbek xalqining buyuk adibi Abdulla Oripov siymosi aks etgan haykal qoshida jam bo'lishdi.



“Gidromelirativ ishlarni mexanizatsiyalash” fakultetining dekani B.Norov boshchiligida professor-o‘qituvchilar, tyutorlar va faol talabalar ishtirokida adabiy, ma’naviy-ma’rifiy davra suhbatı o‘tkazildi. O‘zbekiston qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Davlat madhiyasi matnining muallifi, o‘zbek she’riyatida yangi poetik tafakkurning qaror topishi yo‘lida ijod qilgan shoir Abdulla Oripov ijodiy va hayotiy faoliyatini yana bir bor yod etishdi.

GIM fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari O.Ro'zibayev axboroti